

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA PEDAGOGIK MULOQOT VOSITASIDA KASBIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Kurbanova Gulnoz Negmatovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti, pedagogika, psixologiya kafedrasi mudiri, p.f.d., professor.

orcid id - <https://orcid.org/0000-0002-3399-537X>

Annotatsiya: mazkur maqolada tibbiy oliv ta'limga muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlanishni muammosining dolzarbligi, uning kelajakdagi kasbiy yetukligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogika, pedagogik muloqot, kasbiy tafakkur, shaxsning kasbiy kamoloti, kasbiy yetuklik, kasbiy shakllanish, kasbiy faoliyat, inson ehtiyojlari, uzlucksiz ta'lim

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Kurbanova Gulnoz Negmatovna

доктор медицинских наук, профессор, Бухарского государственного медицинского института, заведующая кафедрой узбекского языка и литературы, педагогики, психологии.

Аннотация: в данной статье анализируется актуальность проблемы развития профессионального мышления у студентов медицинских вузов посредством педагогического общения, а также его будущей профессиональной зрелости.

Ключевые слова: педагогика, педагогическое общение, профессиональное мышление, профессиональная зрелость личности, профессиональная зрелость, профессиональное становление, профессиональная деятельность, потребности человека, непрерывное образование

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL THINKING THROUGH PEDAGOGICAL COMMUNICATION IN MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS

Kurbanova Gulnoz Negmatovna

doctor of medical sciences, professor, Bukhara State Medical Institute, head of the department of Uzbek language and literature, pedagogy, psychology.

Abstract: this article analyzes the relevance of the problem of developing professional thinking among medical students through pedagogical communication, as well as their future professional maturity.

Key words: pedagogy, pedagogical communication, professional thinking, professional maturity of the individual, professional maturity, professional development, professional activity, human needs, lifelong education

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar davrida alohida e'tibor bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilib, o'z navbatida ular talaba yoshlar shaxsini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga mas'ul hisoblanadilar. Olyi ta'limga muassasalari zamonaviy talabalari kasbiy tafakkurini rivojlanishni muammosining dolzarbli shundaki, bo'lajak o'qituvchining tafakkuri murakkab ichki psixologik faoliyat sifatida uning kelajakdagi kasbiy yetukligini belgilaydigan mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rinn tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi.

Shunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud.

Mazkur muammo ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shaxs oldiga yanada kattaroq talablar qo'yadi. XXI asrning boshidagi kasb-korlikka doir axborotlar ko'lamining ortganligi, inson ehtiyojlarning o'sib borayotganligi, yangi sohalarning paydo bo'layotganligi, kasb yo'nalishlarining o'zgarib borishi va shaxsning

hayotga munosabatining o‘zgarayotganligi sifatlari bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichida jamiyatimiz oldida turgan hozirgi kundagi asosiy vazifalardan biri – uzlusiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ta’lim sifatini modernizatsiyalash hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida quyidagini ta’kidlaydi: «Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur» .

Bu esa o‘z navbatida uzlusiz ta’lim tizimida yangi islohotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida faqat nazariy bilimlarni biladigan emas, balki buyuk insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, xalq bilan muomalaga kirisha oladigan, o‘z ishini puxta biladigan mohir mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor berishimiz zarurdir.

Bugungi o‘qituvchi o‘z kasbining mohir ustasi sifatida, o‘z burchiga sodiq, shaxsiy manfaatidan ko‘ra xalq manfaatini ustun qo‘yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetentli shaxs bo‘lishi lozim. Bu borada o‘qituvchilar o‘z ustida timmay ishshchlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jixatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo‘lishiga erishishlari talab etiladi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisining asosiy fazilatlari – o‘z kasbiga sodiqligi, e’tiqodliligi, o‘z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki ta’lim muassasasida ta’lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o‘qituvchi, uming kasbiy tayyorgarligiga bog‘liqidir.

O‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o‘zi o‘qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o‘zlashtirib olgan bo‘lishi zarur. Predmet va uning nazariyasini chuqur bilish, uni qiziqrli qilib talabalarga yetkaza olish bolalarning shu predmetga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, o‘qituvchining obro‘sini oshiradi. Talabalar o‘qituvchining o‘z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina golmay, balki uning fidoyiligini ham qadrlashadi. O‘qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng xalqimizning o‘z tarixi, madaniyati, urf-odatini o‘rganish, bilishga bo‘lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta’lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi milliy qadriyatlarni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, ta’lim muassasasida uning otashin targ‘ibotchisi ham bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassislarini tayyorlash va ularni jahon andozalariga mos bilim ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minalash zarur. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o‘z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og‘ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e’tiqodli insonlar bo‘lib voyaga yetishsin.

Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bavosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqeja va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot ob‘ekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali-obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyorli, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy

jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda .

Tafakkur – miya faoliyati bo‘lib, u tufayli inson, so‘zlar va obrazlar yordamida o‘z organizmining turli-tuman holatlarini hamda borliqda real mavjud va mavhum jismlar va hodisalarni ko‘z oldiga keltirishi va ifodalashi mumkin. Tafakkurning umumiy tasnidan ko‘rinib turibdiki, odam miya faoliyatining ushbu bosh funksiyasida so‘zlar va obrazlar, ya’ni organizmning turli-tuman faoliyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘z orqali ta’sirlanishning hamkorligi orqali shakllangan vaqtli aloqalar muhim rol o‘ynaydi. Bunda, vaqtli aloqalar tafakkurning fiziologik apparati, uning tahlilli-sintetik mexanizmi hisoblanadi. Qo‘zg‘atuvchilarini tahlil va sintez qilish hamda organizmni ularga nisbatan javob faoliyati natijasida vaqtli aloqalar xotirada yig‘ilibgina qolmasdan, balki undan qaytarib olinadi va ularning o‘zidan hamda doimiy hosil bo‘ladigan aloqalardan yangi aloqalarni vujudga keltirish uchun material bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar o‘z-o‘zini boshqarish va doimiy faoliylik xususiyatlari ega bo‘lib, oqibatda xotirada saqlanadigan vaqtli aloqalarni qaytarib olish, ulardan yangi va tizimli aloqalarni, ularni doimiy shakllanuvchi assotsiatsiyalar bilan majmuasini hosil qilish amalga oshiriladi. Zamonaviy fiziologiyada ushbu mexanizmlar reflektorli hisoblanadi, lekin bu, reflektorlik doirasida o‘z-o‘zini boshqarish asosida yotgan sirkulyatorli jarayonlar mavjudligini ham inkor etmaydi.

Odamda vaqtli aloqalar hosil bo‘lishining qonuniylari hayvonlarniki bilan umumiylikka ega bo‘lsa ham, ular sifat jihatdan o‘zaro farqlanishi to‘g‘risida aytgan edik. Shu tufayli, odam va hayvonlarning tafakkuri ham bir-biridan farq qiladi. I.P.Pavlov hayvonlarda, xususan itlarda «tushunish», «faraz qilish», «tafakkur» qobiliyatlarini mavjudligini tan olgan. Uning fikricha, itning «tafakkuri», uning sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatayotgan qo‘zg‘atgichlarni tahlil va sintez qilishning natijasi hisoblanadi. Insonga esa, yuksak tafakkur mansub bo‘lib, unda ikkinchi signal tizimi mavjudligi tufayli, bu tafakkur voqelikdan chetga chiqishga asoslangan. O‘rganish (tajriba), fikr, tafakkur, ma’no – vaqtli aloqalar hosil bo‘lish jarayoni bo‘lib, ulardan foydalanish esa – tushunishdir.

Xuddi shu asnoda talabalarda olam va odam to‘g‘risida bir qolipdag'i tasavvur hosil qilindi. Bunday biryoqlamalik boshqacha fikrlashga shart-sharoit yaratmadı. Natijada avvalgi ta’lim tizimida tahsil olgan kishi darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarida bayon qilingan ma’lumotlardan bo‘lak xabarlardan bebahra qoldilar. O‘zgacha fikr yuritgan talaba yoki talaba, o‘qituvchi yoki domla turli siyosiy bo‘yoqlar yordamida qoralanib tashlandi. Ularga siyosiy yorliqlar osildi.

Yuqorida berilgan darsliklarda, qo‘llanmalarda bitilgan ko‘rgazmalar, tavsiyalar asosida fikr yuritgan minglab yoshlari «yomon» yoki «yaxshi», ijobjiy yoki salbiy deb fikrlashga odatlanib qolishdi. Bunday fikrlash tarziga asoslanib faoliyat ko‘rsatgan kishi, shubhasiz, kalondimog‘lik qildi, boshqalarning fikriga quloq osmadi, eshitishni ham xohlamadi.

Insonning fikrlash tarzi bir qator omillarga, chunonchi tug‘ma intellektual qobiliyatlarga, bolalikda olgan ta’lim va tarbiyasiga, mehnat va ijtimoiy faoliyatining xarakteriga, milliy va umuminsoniy madaniyat me’yorlarini o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu omillarning o‘zaro aloqadorligini ta’minalash mexanizmida bir qator muammolar bo‘lishiga qaramasdan mustaqil fikrlovchi shaxs hamisha erkinlik va o‘zini o‘zi boshqarishga ehtiyoj sezadi. Inson qancha mayda-chuyda nazoratlardan, cheklashlardan xoli bo‘lsa, mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish uchun shuncha real imkoniyat vujudga keladi. Xuddi shuning uchun ham mustaqil fikrlash madaniyati, o‘z navbatida, mustaqil ishslash va mustaqil yashash jarayonida rivojlanib, mustahkamlanib boradi.

Shu o‘rinda tadqiqotimiz ob‘ekti sifatida kasbiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni tanlab olingan ekan, kasbiy tafakkur to‘g‘risidagi zamonaviy talqinlar bilan tanishib chiqishimiz lozim bo‘ladi. Yu.Kornilov kasbiy tafakkurni kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy vazifalarni yechishdagi inson tafakkurining namoyon bo‘lishi deb hisoblasa, D.Kavtaradze amaliy kasbiy vazifalarni hal etishda iqtidor ko‘nikmalarni hosil qiladigan kompetent tafakkur deb belgilaydi. O.Tixomirov kasbiy tafakkurni kasbiy ijodiy topshiriqlarni yechishga qaratilgan turli tuman evristik usullarni o‘zida mujassamlashtiradi, Yu.Kulyutkin esa ijodiy xarakterga ega tafakkurning yuksak darajadagi kasbiy rivojlanishi jarayoni deb ta’rif beradilar. M.Kashapov fikricha kasbiy tafakkur bu kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni topish, o‘rganish, barataraf etishning yuqori darajadagi bilish jarayonidir. Ko‘rinib turibdiki adabiyotlar tahlili natijasi “kasbiy tafakkur” tushunchasining turli xil talqin etilishi uning tuzilishi va tarkibiy qismlari bo‘yicha bir xil aniq fikr mayjud emasligini ko‘rsatmoqda .

Tibbiy oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, ularni ta’lim texnologiyalari bilan qurollantirishga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, bu jarayon pedagogika fanida nazariy-emperik jihatdan o‘z yechimini topmagan. Shunga ko‘ra pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurni rivojlantirish va shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashning shart-sharoitlari, bu jarayonning mazmuni, shakllari, usullari, metodlarini aniqlash kabi masalalar o‘z yechimini kutmoqda.

Foydalaniman adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagisi —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida||gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son

“Авесто”. Тарихий-адабий ёдгорлик. А. Маҳкам таржимаси –Т.: Шарқ нашриёти- матббаа концерни. 2001

Адизов Б.Р. Бошлангич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: Пед.фун.док... дисс. – Бухоро, 2002. – 276 б.

Агзамова Е.Ю. Факторы определяющие проявления индивидуально психологических особенностей личности сотрудников орган внутренних дел. Автореф. дис.... канд. психол. наук. - Ташкент, 2001.-23 с.

Арзикулов Д.Н. Касбий камолотнинг психологик узига хос хусусиятлари Автореферат психология фанлари номзоди. -Тошкент 2002.-22 б

Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Д. Didaktik talim vositalari talim jarayoni samaradorligini taminlash omili sifatida: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.55.50.016> //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 81-86.

Буравкова, А. Г. Ситуационные задачи как способ формирования клинического мышления врача / А. Г. Буравкова, О. Б. Демянова // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии. – 2014. – № 38. – С. 41–45.

Курбанова Г.Н. Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий ма’руза машш‘улотларининг ахамияти / Биология и интегративная медицина. 2021. №2 (49).

Петров, В. И. Клиническое мышление в современной системе высшего медицинского образования в России / В. И. Петров, М. Ю. Фролов// Мед. образование и профессиональное развитие. – 2010. – № 1. – С. 59–62

Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий ма’руза машфулотларининг ахамияти. Гулноз Негматовна Курбанова. Биология и интегративная медицина. 2021

Kurbanova G.N. Kasbiy pedagogika. Darslik-2021 375b

Kurbanova G.N. Development of professional thinking among the students of higher medical education institutions. Monograph-2023

Kurbanova G.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat/ Darslik -2022

Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков. АА Ахмедов, ММ Зикиряева. Новый день в медицине.151-154, 1(29)2020